

УО‘К 621.474

КОГЕНЕРАЦИОН БИОЭНЕРГЕТИК КУРИЛМА АСОСИДА АВТОНОМ ЭНЕРГИЯ ТА’МИНОТ ТИЗИМИНИ ТАДҚИҚОТ QILISH

Rustamov Suhrob Shuhrat o‘g‘li¹ – doktorant (PhD), e-mail: suxrob-zam@mail.ru
Davlonov Xayrulla Allamurodovich² – texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent,
e-mail: xayrulla.davlonov@bk.ru

¹Buxoro muhandislik-texnologiya instituti, Buxoro sh., O‘zbekiston

²Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti, Qarshi sh., O‘zbekiston

Annotatsiya. Ushbu tadqiqot ishida biomassa chiqindilarini termik qayta ishlash orqali muqobil yoqilg‘ilar olish, avtonom iste’molchilarni issiqlik va elektr energiyasi bilan ta’minlash qurilmasining dastlabgi tajriba va tahlillari keltirilgan. Tadqiqot davomida piroлиз qurilmasida turli xil biomassa chiqindilarini 400-500 °C haroratda termik qayta ishlab, olingan muqobil yoqilg‘ilarning tarkibiy tuzilishi o‘rganib chiqilgan. Muqobil yoqilg‘i olish jarayonining issiqlik texnik xususiyatlari va ularga ta’sir etuvchi omillar ilmiy-nazariy tahlilar asosida aniqlangan. Shuningdek tajriba qurilmasining issiqlik, energetik sxemalari ishlab chiqilgan va parametrlari asoslangan.

Kalit so‘zlar: biomassa, reaktor, energiya, muqobil yoqilg‘i, kogeneratsiya, issiqlik energiyasi, avtonom iste’molchi, generator, elektr energiyasi, qozon qurilmasi.

УДК 621.474

ИССЛЕДОВАНИЕ АВТОНОМНОЙ СИСТЕМЫ ЭНЕРГОСНАБЖЕНИЯ НА ОСНОВЕ КОГЕНЕРАЦИОННОЙ БИОЭНЕРГЕТИЧЕСКОЙ УСТАНОВКИ

Рустамов Сухроб Шухрат уgli¹ – докторант (PhD), e-mail: suxrob-zam@mail.ru
Давлонов Хайрулла Алламуродович² - доктор философии по техническим наукам (PhD),
доцент, e-mail: xayrulla.davlonov@bk.ru

¹Бухарский инженерно-технологический институт, г. Бухара, Узбекистан

²Каршинский инженерно-экономический институт, г. Карши, Узбекистан

Аннотация. В данной работе представлены результаты предварительных экспериментов и анализы устройства для получения альтернативных видов топлива путем термической переработки отходов биомассы для обеспечения автономных потребителей теплом и электроэнергией. В ходе исследований изучен состав альтернативных топлив, полученных путем термической переработки различных отходов биомассы при температуре 400-500 °C в пиролизной установке. Определены теплотехнические характеристики процесса производства альтернативного топлива и факторы, влияющие на них. Также были разработаны тепловые и энергетические схемы экспериментальной когенерацационной установки и обоснованы его параметры.

Ключевые слова: биомасса, реактор, энергия, альтернативное топливо, когенерация, тепловая энергия, автономный потребитель, генератор, электроэнергия, котельная установка.

УДК 621.474

RESEARCH OF AN AUTONOMOUS ENERGY SUPPLY SYSTEM BASED ON A COGENERATION BIOENERGY DEVICE

Rustamov Sukhrob Shukhrat ogl¹ – Doktoral student (PhD), e-mail:suxrob-zam@mail.ru
Davlonov Khayrulla Allamurudovich² - Doctor of Philosophy in Technical Sciences (PhD),
Associate Professor, e-mail: xayrulla.davlonov@bk.ru

¹Bukhara Engineering and Technology Institute, Bukhara city, Uzbekistan

² Karshi Engineering-Economics Institute, Karshi city, Uzbekistan

Abstract. In this research work, initial experiments and analyzes of the device for obtaining alternative fuels through the thermal processing of biomass waste, providing autonomous consumers with heat and electricity are presented. During the research, the structural structure of alternative fuels obtained by thermal processing of various biomass wastes at a temperature of 400-500 °C in a pyrolysis device was studied. The thermal technical characteristics of the alternative fuel production process and the factors influencing them were carried out on the basis of scientific and theoretical analyses. Also, thermal and energy schemes of the experimental device were developed and parameters were based.

Keywords: biomass, reactor, energy, alternative fuel, cogeneration, heat energy, autonomous consumer, generator, electricity, boiler unit.

Kirish

Global iqlimning o‘zgarishi, atrof-muhitning ifloslanishi va qazib olinadigan yoqig‘ilarning kamayishi tufayli biomassadan energetik yoqilg‘ilar ishlab chiqarish hamda ulardan keng ko‘lamda foydalanish katta e’tibor va qiziqish uyg‘otmoqda. Hozirgi kunda rivojlanayotgan mamlakatlarning aksariyatida, energetik maqsadlarida o‘simliklar biomassasini yoki qishloq xo‘jaligi chiqindilarini va boshqa tarmoqlar chiqindilaridan energiya manbai sifatida foydalanish masalalari jadal o‘sib bormoqda. Biomassadan energetik yoqilg‘ilar ishlab chiqarish, shuningdek, elektr energiyasi ishlab chiqarishda foydalanish bo‘yicha dunyo olimlari tomonidan ko‘plab g‘oyalar ishlab chiqilmoqda [1].

Yer yuziga o‘simliklarda fotosintez natijasida har yili energiya miqdori $2 \cdot 10^{11}$ J bo‘lgan, taxminan $2 \cdot 10^{11}$ tonna uglerodni o‘zlashtiradi, ushbu ko‘rsatkich esa dunyodagi yillik energiya iste’moli miqdoridan 10 baravar yuqoridir. Fotosintez hodisasi, Yer sayyorasidagi eng qadimgi va eng mashhur biokimyoviy reaksiyasi hisoblanadi. Fotosintez - yashil o‘simliklar va fotosintetik mikroorganizmlar tomonidan nurlanish energiyasini organik moddalarning kimyoviy bog‘lanish energiyasiga aylantirish va yerdagi hayotning asosiy jarayonidir. Biomassani qayta ishlash orqali esa ushbu energiyani boshqa xil energiya ko‘rinishida ajratib olish mumkin [2].

Shuningdek, biomassa tizimlari qishloq xo‘jaligi va o‘rmon xo‘jaligini rivojlantirish, yerdan foydalanish tartibini yaxshilash va bioenergiya texnologiyasini dunyo miqyosida rivojlantirish nuqtai nazaridan ham katta foyda keltiradi.

Gaz dvigatellariga asoslangan kogeneratsiya qurilmalari issiqlik va elektr energiyasini ishlab chiqarishning eng samarali usuli hisoblanadi. Ushbu qurilmalar G‘arbiy Yevropa mamlakatlari sanoatida bir necha yillar oldin faoliyat yurita boshlagan [3].

Ushbu texnologiyaning asosiy afzalliklari orasida quydagilar ajralib turadi:


- yuqori yoqilg‘i tejamkorligi;
- bir vaqtning o‘zida issiqlik va elektr energiya ishlab chiqarish;
- yuqori harakatchanlik, nominal quvvatga tez kirishish (bir necha daqiqa), moslashuvchanlik, ya’ni o‘zgaruvchan yuklamarga moslashish [4].

Kogeneratsiya qurilmalarining ixchamligi, ekologik tozaligi va shovqini pastligi kabi afzalliklarni ham e’tiborga olish muhim. Iste’molchilar uchun muhim bo‘lgan sifat ko‘rsatkichlariga kelsak, chastota va kuchlanish bo‘yicha yuqori aniqlikga energiya ishlab chiqaradi hamda markaziy ta’mindan ajralgan alohida tizimlarni yaratish mumkin. Bu esa iste’molchilarga yuqori sifatli elektr ta’moti tizimini qurish imkonini beradi. Yoqilg‘i sifatida qayta tiklanadigan yoki ikkilamchi energiya manbalari, masalan, qo’shma gaz, biogaz, piroliz gazi, biomassani gazlashtirish jarayonida olingan gaz, neft-kimyo va metallurgiya sanoatida chiqariladigan maxsus texnologik gazlar ham ishlatalishi mumkin [5].

Uslug va materiallar

Avtonom iste’molchilarni ishonchli energiya bilan ta’minalash maqsadida kogeneratsion bioenergetik qurilmaning sxemalari ishlab chiqildi. Tajriba qurilmasi ichki yonuv dvigatelli - elektrogenerator hamda piroliz qurilmasidan iborat bo‘lib, biomassani termik qayta ishlash natijasida avtonom iste’molchilarni bir vaqtning o‘zida issiqlik hamda elektr energiyasi bilan ta’minalashga mo‘ljallangan. Qurilma reaktori issiqlik qozoni vazifasini ham bajarib, issiqlik suv olish hamda qo’shimcha ravishda muqobil yoqilg‘ilar olish imkonini beradi.

Avtonom iste'molchilarни энергия hamda yoqilg'i bilan ta'minlash uchun qurilma reaktor, kondensator, separator, adsorber, gazgolder, isitish batareyalari, ichki yonuv dvigatelli-elektrogenerator va saqlash idishini o'z ichiga olgan. Bioraektor "quvurdagi quvur" tipida yasalgan bo'lib, uning ichki quvurida biomassaning pirolizi sodir bo'ladi va tashqi quvurda suv atrof-muhitga yo'qotiladigan issiqlik hisobiga isitiladi. Shu bilan birga, reaktorning ichki quvuri biomassani termal qayta ishlab yoqilg'i (biogaz) olish imkonini beradi, qozonning tashqi quvuridagi issiqlik esa iste'molchilarни isitish tizimini issiq suv bilan ta'minlash muammosini hal qiladi. Tajriba qurilmasining energetik sxemasi 1- rasmda keltirilgan.



1-rasm. Avtonom iste'molchilar uchun kogeratsion bioenergetik qurilma:

1- reaktor, 2- yoqilg'i yoqish kamerasi, 3- parmasimon yo'naltiruvchi plastinkalar, 4- tutun chiqish quvuri, 5- quvur ichida quvur tipidagi suv qozoni, 6- issiq suv quvuri, 7- iste'molchi, 8- isitish batareyalari, 9- sovuq suv quvuri, 10- bug'-gaz quvuri, 11- kondensator, 12- separator, 13- adsorber, 14- gazgolder, 15- reaktorni ta'minlovchi gaz quvuri, 16- gaz filtri, 17- ichki yonuv dvigatelli generator, 18- elektr taqsimlash shiti, 19- chiqindi gazi quvuriga o'rnatilgan issiqlik almashgich, 20- isitish batareyalari, 21- biomassa yuklash qopqog'i.


Mazkur qurilma biomassa chiqindilardan foydalanilgan holda avtonom iste'molchilarni yoqilg'i, issiqlik va elektr energiyasi bilan ta'minlashda qo'llaniladi. Reaktor (1) biomassa chiqindilari idishi bo'lib, yoqilg'i yoqish kamerasi (2) yordamida 400-550 °C gacha qizdiriladi. Parmasimon yo'naltiruvchi plastinkalar (3) reaktorning sirti bo'ylab issiqliknинг tekis taqsimlanishini ta'minlab, tutun chiqish quvuri (4) orqali chiqadigan issiqlik isroflarini kamaytirishda xizmat qiladi. Qizdirish natijasida tashqi muhitga isrof bo'lувчи issiqlik energiyasi quvur ichida quvur tipidagi truba (5) dagi suvgaga yutiladi. Qizigan suv issiq suv quvuri (6) orqali, iste'molchi (7) da joylashgan isitish batareyalari (8) ga uzatilib, issiqlik berishi natijasida sovugan suv sovuq suv quvuri (9) yordamida quvur ichida quvur tipidagi trubaga uzatiladi. Reaktorda chiqadigan bug'-gaz aralashmasi quvur (10) orqali kondensator (11) ga sovutish uchun uzatiladi. Sovutish natijasida aralashma suyuq va gazsimon yoqilg'ilarga ajralib, suyuq yoqilg'i separator (12) yig'iladi, gaz esa adsorber (13) orqali namlikdan tozalanadi. Tozalangan gaz gazgolder (14) ga yig'ilib bir qismi reaktorni ta'minlovchi gaz quvuri (15) orqali yoqish kamerasiiga beriladi. Gazning qolgan qismidan gaz filtri (16) orqali ichki yonuv dvigatelli-generator (17) ga elektr energiya ishlab chiqarish uchun uzatiladi, ishlab chiqarilgan elektr energiyasi iste'molchinig elektr taqsimlash shiti (18) ga beriladi. Ichki yonuv dvigatelli generatorning chiqindi gazi quvuriga o'rnatilgan issiqlik almashgich (19) orqali qizdirilgan suv iste'molchingiz isitish batareyalari (20) ga uzatiladi.

Kogeneratsion bioenergetik qurilmaning umumiy ko'rinishi 2- rasmida keltirilgan.



2-rasm. Kogeneratsion bioenergetik qurilmaning umumiy ko‘rinishi.

Bundan tashqari, kogeneratsion bioenergetik qurilma reaktori va suv quvuri o‘ralig‘i, ya’ni reaktorning tashqi sirtida α burchak ostida qiyalashtirilgan parmasimon issiqlik yo‘naltiruvchi plastinkalar o‘rnatilgan bo‘lib, bu sirtlar reaktorga berilayotgan haroratni maksimal saqlab qolish, tekis taqsimlash hamda tashqi muhitga yo‘qotiladigan issiklikni kamaytirish vazifasini bajaradi. Qurilma qozoniga ulangan isitish batareyalari iste’molchini issiq suv orqali isitadi hamda sovugan suv qayta qizish maqsadida qurilma qozoniga quvur orqali yetib keladi.



3-rasm. Bioreaktorning konstruktiv tuzilishi.

Iste'molchilarni elektr energiya bilan ta'minlash uchun ASTRA KOREA 4000E markadagi 4 taktili benzinli ichki yonuv dvigatelli-generator piroliz gazida ishlash uchun moslashtirilgan. Ya'ni uning havo filtri qismida qo'shimcha o'zgartirishlar kiritilib, gaz-havo aralashmasi bir tekisda qo'shilib borishini ta'minlash uchun optimal qiyalikda trubka joylashtirilgan. Ushbu trubka orqali gaz berilganda generator gazda bemalol ishlay olishi ta'minlangan. Ichki yonuv dvigatelli-generatorning nominal quvvati 3,5 kWt bo'lib asosiy xarakteristikalar 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

ASTRA KOREA N-4000E generatorining xarakteristikalar

| Generator markasi | ASTRA KOREA N-4000E |
|---|---------------------|
| Ishlab chiqaradigan kuchlanishi | ~220-240 V |
| Ishlab chiqaradigan o'zgarmas tok kuchlanishi | 12 V |
| Chastotasi | 50 Gts |
| Nominal quvvati | 3.5 kWt |
| Maximal quvvati | 4 kWt |
| Nominal aylanish tezligi | 3000/3600 ayl/min |

Piroliz gazining tarkibida turli xil ortiqcha moddalar mavjudligi va namlikning yuqoriligini hisobga olgan holda, generatorga gaz kirishi oldidan gazni qisman filrlash maqsadida 3 bosqichli filtr ishlab chiqildi va tizimga o'rnatildi. Filtr 3 bosqichdan iborat bo'lib, 1-bosqichda suv idishidan, 2-bosqichda aktiv ko'mir toshidan, hamda 3-bosqichda maydalangan temir qirindisidan o'tib generatorga boradi. Ishlab chiqilgan filtr, korpusga mahkamlangan shisha idishlardan va trubkalardan iborat. Gaz filtrning umumiy korinishi 4- rasmida keltirilgan.




4- rasm. Gaz filtrining umumiy ko'rinishi.

1-bosqichdagi suv idishidan gaz sizib o'tishi natijasida gazning tarkibidagi karbonat angidrid miqdori kamayadi hamda bug'-gaz aralashmasidagi kondensatsiyalanmay qolgan suyuqlik saqlab qolinadi. 2-bosqichdagi aktiv ko'mirli filtrda esa gazning tarkibidagi namlik saqlab qolinadi va buning natijasida ichki yonuv dvigatelining yonish kamerasida suv bug'lari hosil bo'lmaydi. 3-bosqichdagi temir qirindisi idishidagi filtrning vazifasi piroliz gazi tarkibidagi uglerod oksidini kamaytirish va gazning yaxshi yonishini ta'minlashdan iborat. Uglerod oksidi reaksiya vaqtida moddalarning parchalanishi natijasida paydo bo'ladigan o'tkir va yoqimsiz hidli gaz hisoblanadi [6].

Taklif etilgan kogeneratsion energiya tizimi birinchidan, piroliz qurilmasi biomassadan muqobil yoqilg'i olish imkonini beradi, ikkinchidan qurilma reaktorining tashqi idishi bir vaqtida, issiqlik generatori (suv qizdirish qozoni) vazifasini ham bajarib, tashqi muhitga yo'qotiladigan

issiqlik hisobiga iste'molchining isitish tizimini issiq suv bilan ta'minlaydi. Uchinchidan ichki yonuv dvigatelli-generatorining chiqindi gazlari qismidan issiqlik almashgich yordamida iste'molchiga qo'shimcha issiq suv olish imkonini beradi, to'rtinchidan iste'molchilarni ishonchli va uzlusiz elektr energiyasi bilan ta'minlaydi. Shuningdek iste'molchilarga avtonom elektr stansiyasi qurish imkonini ham beradi.



5-rasm. Gaz filtrining funksional sxemasi.

Natijalar

Tajriba qurilmasining reaktoriga yuklangan, qarag'ay daraxtining biomassasi pirolizi jarayonidan olingan energiya va yoqilg'ilar miqdori bo'yicha dastlabgi tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, yuklangan 3 kg mahsulotdan 1,32 kg (44 %) qattiq, 0,33 kg (11 %) suyuq, 1,35 kg (45 %) gazsimon muqobil yoqilg'ilarini olindi hamda olingan gazsimon yoqilg'idan elektr energiya olish maqsadida ichki yonuv dvigatelli-generatororda yoqildi.

Tahlillardan ma'lumki elektr stansiyalarida 1 kVt elektr energiyasi ishlab chiqarish uchun 0,25-0,30 kg shartli yoqilg'i ekvivalenti sarflanadi. Shuningdek gaz generatorlari yordamida 1 kVt*soat elektr energiya ishlab chiqarishda tabiiy gazning solishtirma sarfi $0,22 - 0,25 \text{ m}^3$ ni tashkil etadi [7].

Tabiiy gazning yonish issiqlik qiymati – $34 \text{--} 40 \text{ MJ/m}^3$ (tarkibidagi metan miqdoriga qarab) bo'lsa, gazning 1 kubometri yonganda $9 \text{--} 12 \text{ kVt*soat}$ energiya chiqariladi.

Dizel yoqilg'isining solishtirma yonish issiqligi 42 MJ/kg ; zichlikni hisobga olgan holda esa, $33,6 \text{ MJ / litr}$ ni tashkil etadi. Demak, 1 litr dizel yoqilg'isi yoqilganda $9,33 \text{ kVt * soat}$ energiya chiqaradi [8].

Yoqilg'i-energetika resurslarini ishlab chiqarish va taqsimlash yoqilg'i ekvivalenti birliklarida hisoblab chiqiladi, bunda yoqilg'ilarning isitish qiymati, xalqaro tashkilotlarda qabul qilingan energiya birliliklarda hisoblanadi. Quyidagi 2-jadvalda biogaz hamda boshqa yoqilg'ilarni solishtirish ekvivalenti keltirilgan [9].

2-jadval

Biogaz hamda boshqa yoqilg‘ilarni solishtirish ekvivalenti

| Yoqilg‘i | Yoqilg‘i birligida isitish qiymati, kVt | Yoqilg‘i birligida isitish qiymati, MJ | Yoqilg‘ning birlik narxi, so‘m | 1 m ³ biogaz uchun yoqilg‘i nisbati | Yoqilg‘i birligining biogazga nisbati |
|-------------------------------|---|--|--------------------------------|--|---------------------------------------|
| Dizel, kerosin, litr | 10 | 36 | 10500 | 0,69 litr | 1,44 m ³ |
| Benzin, litr | 8,5 | 30 | 9000 | 0,82 litr | 1,28 m ³ |
| O‘tin, kg | 4,5 | 16,2 | 1700 | 1,5 kg | 0,65 m ³ |
| Quruq go‘ng, kg | 5 | 18 | - | 1,4 kg | 0,7 m ³ |
| Quruq o‘simlik qoldiqlari, kg | 4,5 | 16,2 | - | 1,5 kg | 0,65 m ³ |
| Qattiq ko‘mir, kg | 7,7 | 27,6 | 300 | 0,9 kg | 1,1 m ³ |
| Tabiiy gaz, m ³ | 9,3 kVt / m ³ | 33,5 | 390 | 0,75 m ³ | 1,34 m ³ |
| Propan, m ³ | 12,8 kVt / m ³ | 46 | 3000 | 0,54 m ³ | 1,84 m ³ |
| Elektr energiyasi, kVt | 1 | 3,6 | 295 | 6,9 kVt | 0,14 m ³ |
| Biogaz, m ³ | 7 | 25 | 210 | 1 m ³ | 1 m ³ |

- 1 tonna shartli yoqilg‘i 29,3 Megajoulga teng.

Gazsimon moddalarning hajmini topishda avval uning zichligini topishimiz kerak bo‘ladi. 3-jadvalda gazsimon moddalarning zichligi keltirilgan [10].

3-jadval

Gazsimon moddalarning zichligi (20 °C haroratda)

| Vodorod H ₂ | Metan CH ₄ | Etilen C ₂ H ₄ | Etan C ₂ H ₆ | Propilen C ₃ H ₆ | Propan C ₃ H ₈ | Butin C ₄ H ₆ | Butilen C ₄ H ₈ | Butan C ₄ H ₁₀ | Is gazi CO | Uglerod dioksidi CO ₂ |
|------------------------|------------------------|--------------------------------------|------------------------------------|--|--------------------------------------|-------------------------------------|---------------------------------------|--------------------------------------|------------------------|----------------------------------|
| 0,09 Kg/m ³ | 0,72 Kg/m ³ | 1,25 Kg/m ³ | 1,34 Kg/m ³ | 1,87 Kg/m ³ | 1,96 Kg/m ³ | 2,41 Kg/m ³ | 2,50 Kg/m ³ | 2,59 Kg/m ³ | 1,97 Kg/m ³ | 1,25 Kg/m ³ |

Munozara

Piroliz gazining asosiy qismini (60-70 %) metan gazi tashkil etib, qolgan qismida boshqa gazlar mavjudligi sababli yonish issiqligi tabiiy gazga nisbattan pastroq hisoblanadi [11]. Shularni hisobga olgan holda ushbu gazga to‘g‘ridan-to‘g‘ri metan deb qaray olmaymiz.

Olib borilgan tahlillarga ko‘ra piroliz gazining zichligi 1,06 Kg/m³ ekanligi olimlar tomonidan aniqlangan hamda 1kVt*soat elektr energiyasi olish uchun 0,29-0,31 m³ piroliz gazi sarflanishi asoslangan [12].

Yuqoridagilarni inobatga olib qurilmaga yuklangan qarag‘ay daraxti biomassasidan ajralib chiqgan 1,35 kg gazsimon yoqilg‘idan olingan elektr energiyasini hisoblaymiz.

$$\text{Olingan piroliz gazining hajmini topamiz : } V = \frac{m}{\rho} = \frac{1,35}{1,06} = 1,27 \text{ m}^3 \quad [13]$$

Ishlab chiqarilgan elektr energiyani hisoblaymiz : 1,27 / 0,29 = 4,37 kVt*soat.

Ishlab chiqilgan kogeneratsion bioenergetik qurilmada dastlabgi sinov va tajribalar o‘tkazildi va dastlabgi tadqiqot natijalari 4-jadvalda keltirildi.

4-jadval

Kogeneratsion bioenergetik qurilmaning dastlabki sinov natijalari

| Xomashyo turi | Yuklangan xomashyo massasi, kg | Jarayoning davomiyligi, min | Piroliz mahsulotlari | | | Piroliz gazidan ishlab chiqarilgan elektr energiya, kVt*soat |
|-----------------------------|--------------------------------|-----------------------------|----------------------|-----------|---------|--|
| | | | qattiq, kg | suyuq, kg | gaz, kg | |
| Qarag‘ay daraxti biomassasi | 3 | 90 | 1,32 | 0,33 | 1,35 | 4,37 |
| Pomidor poyasi | 4,8 | 100 | 2,4 | 0,7 | 1,7 | 5,53 |
| Terak opilkasi | 4,1 | 90 | 1,86 | 0,87 | 1,37 | 4,45 |

Xulosa

1. Biomassa chiqindilari ustida olib borilgan tajribalar natijasida, kogeneratsion bioenergetik qurilmaning prinsipial sxemalari ishlab chiqilgan va parametrlari asoslangan.
2. Kogeneratsion bioenergetik tajriba qurilmasida bajarilgan dastlabki tajriba – sinov natijalariga ko‘ra qurilmaga yuklangan 3 kg qarag‘ay daraxti biomassasidan 1,32 kg (44 %) qattiq, 0,33 kg (11 %) suyuq, 1,35 kg (45 %) gazsimon muqobil yoqilg‘ilarning namunalari olindi.
3. Tajribada turli xil biomassa chiqindilarini (qarag‘ay daraxti biomassasi, pomidor poyasi, terak opilkasi) termik qayta ishlash orqali olingan biogaz ichki yonuv dvigatelli-generator yordamida elektr energiyaga aylantirildi.
4. Tajriba piroliz qurilmasida o‘tkazilgan tadqiqot davomida biomassa chiqindisidan ajralib chiqgan 1,35 kg biogazdan, 4,37 kVt*s elektr energiyasi ishlab chiqarish mumkinligi aniqlandi.

Adabiyotlar

- [1] European Environment Agency Bio-waste in Europe-turning challenges into opportunities, 2020.
- [2] Шалимов Ю.Н., Епифанов А.В., Кудряш В.И. Физико-химические основы процессов образования биомассы и перспективы ее использования в альтернативной энергетике// Научной статьи по Нанотехнологиям - 2015.
- [3] Uzakov G.N., Davlonov Kh.A., Holikov K.N. Study of the Influence of the Source Biomass Moisture Content on Pyrolysis Parameters// Applied Solar Energy, 2018, Vol. 54, No. 6, pp, 481-484. (05.00.00; №4. Scopus CiteScore 2018, IF:0.9).
- [4] Алешина А.С. Тепловые схемы газогенераторных электростанций, работающих на растительной биомассе // Глобальная энергия – 2011.
- [5] Седнин, В. А. Комбинированная установка выработки электрической и тепловой энергии с использованием биомассы // Наука - образование, производству, экономике: материалы Девятой международной научно-технической конференции : в 4 т.– Минск : БНТУ, 2011. – Т. 1. – С. 98.
- [6] Рустамов Э.С. Каталитическая очистка газа от сероводорода // Наука и образование сегодня - 2016.
- [7] Чучуева И.А. Вычислительные методы определения удельных расходов условного топлива ТЭЦ на отпущенную электрическую и тепловую энергию в режиме комбинированной выработки // Машиностроение и компьютерные технологии - 2016.
- [8] <https://a-invest.com.ua/aktualno/tablitsa-teplotvornosti>.
- [9] Узаков Г.Н., Раббимов Р.Т., Давлонов Х.А., Узакова Ю.Г. Применение технологии пиroliza биомассы для получения альтернативных топлив / Г.Н.Узаков и др.; М-во

высш. и сред. спец. образования Респ. Узбекистан, Каршин. инженер.-экон. ин-т. - Ташкент: Фан, 2015. - 120 с.

- [10] Фетисов В. Обоснование параметров транспортирования природного газа по магистральным газопроводам с учетом нестационарных режимов. Кандидатская диссертация - 2019.
- [11] Узаков Г.Н., Давлонов Х.А., Хужакулов С.М., Холиков К.Н. Оценка энергетической эффективности пиролизной установки для систем топливоснабжения теплиц/ Proceedings of the XIII International Scientific and Practical Conference «International Trends in Science and Technology» Vol. 1, May 31, 2019, Warsaw, Poland. 33-35.
- [12] Таймаров М.А. Лавирко Ю.В. Теплогенерирующий агрегат с выработкой пиролизного газа // Известия Казанского государственного архитектурно-строительного университета- 2017 .
- [13] Rustamov S., Uzakov G., Davlonov K. The results of the study of obtaining alternative fuels from biowaste in the experimental pyrolysis device //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2023. – T. 390.